



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buyuk
davlat

2025-YIL — ATROF-MUHITNI ASRASH VA "YASHIL" IQTISODIYOT YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: info@xs.uz

2024 yil 4-yanvar, № 2 (8897)

Shanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASHGA YANGICHA YONDASHUV

3-yanvar kuni Prezident Shavkat Mirziyoyevga banklar ishtirokida mahallalarda aholi bandligini ta'minlash va daromadli qilish chora-tadbirlari bo'yicha axborot berildi.

Bu haqda 2024-yil 16-dekabr kuni bo'lib o'tgan videoselektor yig'ilishida topshiriq berilgan edi. Shundan kelib chiqib 2025-yilda jami 5 million 200 ming nafar, jumladan, banklar tomonidan 3 milliordan ziyod aholini band qilish rejalashtirildi.

Shu maqsadda 208 ta tuman va shahar hokimlari hamda banklar rahbarlari tomonidan aholi bandligini ta'minlash va daromadini oshirish bo'yicha hamkorlik shartnomalari imzolandi, bunda tomonlarning aniq huquq va majburiyatlari ko'rsatib o'tildi.

Har bir mahalla bo'yicha maqsadli ko'rsatkichlar belgilandi. Aholi bandligini ta'minlashga qaratilgan "Mahalla loyihasi" dasturi doirasida ajratiladigan 1 milliard dollar kredit resurslari banklar va hududlar kesimida taqsimlandi. Loyiha ishlab chiqish, kredit ajratish, aholi bandligini ta'minlash bo'yicha tuman banki rahbariga oyma-oy samaradorlik ko'rsatkichi qo'yildi.

Endi Markaziy bank raisi va uning o'rinbosarlari hududlarga chiqib, joylardagi

bank filiallarining mahallalardagi ishini yangicha yondashuv asosida tashkil qiladi. 2025-yil 1-fevralga qadar tuman banklari filiallarida mahallabay ishlash bo'limlari tashkil etilib, ularga mahalla bankirlari tayinlanadi. Shuningdek, har bir mahallada ular bilan birga ishlaydigan yordamchi-agentlar tanlab olinadi.

Hududiy banklar hamda tuman hokimlari aholini tayyor biznes loyihalari bilan tanishtirib boradi, ularni amalga oshirish ko'nikmalari o'rgatiladi.

"online-mahalla.uz", "bank-kredit.uz" va "soliq.uz" axborot tizimlari integratsiya qilinib, mas'ullarga yuklatilgan vazifalar ijrosi kunlik tahlil qilib boriladi. Faoliyati qoniqsiz bo'lgan rahbarlarga chora ko'riladi.

2025-yil bandlikni ta'minlash va kambag'allikni kamaytirishda hal qiluvchi yil bo'lishi, buning uchun mahalliy hokimliklar va iqtisodiy-moliyaviy tuzilmalarning muvofiqlashtirilgan ishini faollashtirish zarurligi ta'kidlandi.

BYUDJET XARAJATLARINING IJTIMOIY YO'NALTIRILGANLIGI SAQLAB QOLINDI

Prezident Shavkat Mirziyoyevga "2025-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risida"gi Qonun ijrosini ta'minlash chora-tadbirlari yuzasidan axborot berildi.

Mazkur qonun 17 ta modda va 10 ta ilovadan iborat bo'lib, unda asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlar o'z ifodasini topgan. Xususan, 2025-yilda mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti 6 foiz o'sishi kutilmoqda.

Konsolidatsiyalangan byudjet daromadlari 431 trillion so'm miqdorida, xarajatlari esa 480,5 trillion so'm miqdorida rejalashtirilgan holda yalpi ichki mahsulotga nisbatan 3 foiz miqdoridagi taqchilik bilan tasdiqlandi.

Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlari balansi yalpi ichki mahsulotga nisbatan 2 foiz miqdorida taqchilik bilan shakllantirildi. Bunda Davlat byudjeti daromadlari 308,5 trillion so'm, xarajatlari esa davlat maqsadli jamg'armalarga transfertlarni inobatga olgan holda 344,8 trillion so'm miqdorida rejalashtirildi.

2025-yilda Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetining, viloyatlar hamda Toshkent shahar mahalliy byudjetlarining daromadlari prognozi 65,8 trillion so'm, xarajatlari prognozi 84,3 trillion so'm miqdorida bo'lishi inobatga olingan. Shuningdek, respublika byudjetidan mahalliy byudjetlarga 18,5 trillion so'm miqdorida tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar o'tkazib berilishi nazarda tutilgan.

Qonunga ko'ra bu yil ham byudjet xarajatlarning ijtimoiy yo'naltirilganligi saqlab qolindi. Ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy himoya, fan, madaniyat va sportni rivojlantirish, muhtoj aholini uy-joy bilan ta'minlash kabi tadbirlar uchun jami Davlat byudjeti xarajatlarning 52 foizi yo'naltiriladi.

Mahalliy byudjetlar daromadini ko'paytirish va mustaqilligini oshirish maqsadida quyidagi soliq turlari qo'shimcha tarzda tuman va shaharlar byudjetlarida qoldiriladi:

– aylanmadan olinadigan soliq, yuridik shaxslarning yer va mol-mulk soliqlari to'liqligicha (yirik soliq to'lovchilar tomonidan to'lanadigan soliq bundan mustasno);

– jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i tushumlarining kamida 50 foizi (yirik soliq to'lovchilar tomonidan to'lanadigan soliq bundan mustasno);

– davlat mulkini xususiy lashtirishdan mahalliy byudjetlarga tushadigan tushumlarning 50 foizi.

Shuningdek, tuman va shaharlar mahalliy Kengashlariga ayrim soliq turlari bo'yicha koeffitsiyent qo'llash vakolatlari berilgan.

Umuman, Davlat byudjeti joriy yilda ham iqtisodiyotni izchil rivojlantirish, ijtimoiy masalalarni manzilli hal etib, aholi farovonligini oshirishga xizmat qiladi.

O'ZA.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining QARORI

TURKISTON JADIDLIK HARAKATINING ASOSCHISI, ATOQLI ADIB VA JAMOAT ARBOBI, NOSHIR VA PEDAGOG MAHMUDXO'JA BEHBUDIY TAVALLUDINING 150-YILLIGINI KENG NISHONLASH TO'G'RSIDA

Vatanimiz tarixida g'oyat murakkab va sinovli davr bo'lgan XX asr boshida maydonga chiqqan Mahmudxo'ja Behbudiy Turkiston jadidlik harakatining asoschisi hisoblanadi. U milliy ozodlik harakatining buyuk namoyandasi sifatida ilm-fan, ta'lim va tarbiya, adabiyot va san'at, matbuot sohaslarini rivojlantirish, jahondagi ilg'or taraqqiyot yutuqlarini o'zlashtirish orqali xalqimizning ongu tafakkurini yuksaltirish hamda hurriyatga erishish yo'lida o'z hayotini baxsh etgan fidoiy zotdir.

Mahmudxo'ja Behbudiy chor hukumati va mahalliy mutaassib kuchlarning mislsiz qarshiligiga qaramasdan, yurtimizda birinchi darajada ilk zamonaviy maktablar tashkil qilish, ular uchun zarur darsliklar yaratish, nashriyot va teatrlar barpo etish ishlariga bosh-qosh bo'ldi. Mohir publisist sifatida o'z davrining dolzarb muammolariga bag'ishlangan qator salmoqli asarlar va ikki yuzdan ortiq maqolalar yaratdi. Shu bilan birga, "Samarqand" gazetasi hamda "Oyina" jurnaliga asos soldi. 1914-yilda "Turon" teatrida sahnalashtirilgan "Padarkush" pyesasi orqali o'lkamizda teatr san'atining tamol toshini qo'ydi. Afsuski, atqoli adib va jamoat arbobi bo'lgan bu mutafakkir zot 44 yoshida yovuz kuchlar qurboni bo'ldi.

Mustaqillik davrida Mahmudxo'ja Behbudiy xotirasini abadiylashtirish, hayoti va faoliyatini chuqur tadqiq qilish, ilmiy va badiiy asarlarini keng ommalashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Ayniqsa, keyingi yillarda Toshkent shahridagi Adilbar xiyobonida uning muazzam haykali o'rnatilgani, Samarqand shahrida uy-muzei tashkil qilingani mamlakatimiz hayotida katta voqea sifatida e'tirof etildi. Iste'dodli dramaturglar uchun Mahmudxo'ja Behbudiy nomidagi mukofot ta'bis

qilingani shu yo'ldagi yangi amaliy qadam bo'ldi.

Mahmudxo'ja Behbudiy asarlarining yosh avlodimiz intellektual va ma'naviy salohiyatini oshirish, shu asosda ularni Yangi O'zbekiston bunyodkorlari, chinakam vatanparvar insonlar etib tarbiyalash borasidagi o'rni va ahamiyatini inobatga olib hamda uning bebaho merosini yanada kengroq o'rganish va targ'ib etish maqsadida:

1. Madaniyat vazirligi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Yozuvchilar uyushmasi, Fanlar akademiyasi, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi, Yoshlar ishlari agentligi hamda jamoatchilik vakillarining 2025-yilda Turkiston jadidlik harakatining asoschisi, atqoli adib va jamoat arbobi, noshir va pedagog Mahmudxo'ja Behbudiy tavalludining 150-yilligini keng nishonlash to'g'risidagi takliflari ma'qullansin.

2. Mahmudxo'ja Behbudiy tavalludining 150-yilligini nishonlash bo'yicha tashkiliy qo'mita (keyingi o'rinlarda – Tashkiliy qo'mita) ilovaga muvofiq tarkibda tuzilsin.

3. Tashkiliy qo'mita (A.Aripov) ikki hafta muddatda Mahmudxo'ja Behbudiy tavalludining 150-yilligini nishonlash bo'yicha amalga oshiriladigan chora-tadbirlar dasturini tasdiqlasin.

Ushbu dasturda quyidagi masalalarga alohida e'tibor qaratilsin: mutafakkir adibning "Tanlangan asarlar" to'plami, uning hayoti va faoliyatiga bag'ishlangan ilmiy-ommabop kitoblarni nashrga tayyorlash va chop etish;

Mahmudxo'ja Behbudiy haqida spektakllar sahnalashtirish hamda bugungi kunga qadar yaratilgan "Mahmudxo'ja Behbudiy" kinoseriali va "Xalq yuragi" badiiy-publisistik filmlarining ommaviy namoyishlarini tashkil qilish;

Badiiy akademianing Markaziy ko'rgazmalar zalida Mahmudxo'ja Behbudiy hayoti va ijodi, shuningdek, Turkiston jadidlik harakati namoyandalarining faoliyatiga oid tasviriy san'at asarlari ko'rgazmasini uyushtirish;

umumiy o'rta ta'lim muassasalari, ijod maktablari o'quvchilari, "Temurbeklar maktablari" kursantlari hamda oliy ta'lim muassasalari talabalari o'rtasida "Mahmudxo'ja Behbudiy saboqlari" mavzusida insholar tanlovi o'tkazish va g'oliblarni munosib taqdirlash;

barcha bo'g'indagi ta'lim muassasalari, kutubxonalar, mehnat jamoalari, mahallalar va harbiy qismlarda tanikli olimlar va adiblar ishtirokida Mahmudxo'ja Behbudiy hayoti va ijodiga bag'ishlangan ijodiy uchrashuvlar, adabiyot va kitobxonlik kechalarini tashkil qilish;

zamonaviy raqamli va targ'ibot texnologiyalari asosida Mahmudxo'ja Behbudiy asarlarini yoshlar o'rtasida keng ommalashtirish;

2025-yil oktabr oyida Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida "Mahmudxo'ja Behbudiy merosi va jadidlik harakatini o'rganishning dolzarb masalalari" mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya tashkil qilish;

2025-yil noyabr oyida Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston davlat akademik katta teatrida Mahmudxo'ja Behbudiy tavalludining 150-yilligiga bag'ishlangan tantanali adabiy-ma'rifiy xotira kechasini o'tkazish;

Samarqand shahridagi Mahmudxo'ja Behbudiy uy-muzei hududini obodonlashtirish hamda muzey ekspozitsiyasini boyitish;

Qarshi shahridagi ko'chalardan biriga Mahmudxo'ja Behbudiy nomini berish hamda unga bag'ishlangan yodgorlik lavhasini o'rnatish;

Internet va ijtimoiy tarmoqlar uchun mo'ljallangan audiovizual asarlar yaratish, shuningdek, ommaviy axborot vositalarida turkum materiallarni e'lon qilish.

Tashkiliy qo'mitaga Mahmudxo'ja Behbudiy tavalludining 150-yilligini nishonlash doirasida o'tkaziladigan tadbirlarni duksak sayiyada uyushtirish, mazkur qarorga asosan belgilangan chora-tadbirlarning o'z vaqtida, sifatli va to'liq amalga oshirilishini muvofiqlashtirib borish vazifalari yuklatilsin.

4. O'zbekiston Milliy axborot agentligi, O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi, Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi, O'zbekiston Jurnalistlar uyushmasi, O'zbekiston Milliy media birlashmasi va boshqa ommaviy axborot vositalariga Mahmudxo'ja Behbudiy tavalludining 150-yilligini nishonlash bilan bog'liq tadbirlarni keng yoritish tavsiya etilsin.

5. Belgilansinki, mazkur qarorda nazarda tutilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish bilan bog'liq xarajatlar tashkilotchilarga Davlat byudjetidan ajratilgan mablag'lar doirasida, ularning byudjetdan tashqari mablag'lari hamda qonunchilik hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan moliyalashtiriladi.

6. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri A.N.Aripov hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi Ijtimoiy Rivojlanish departamenti rahbari O.Q.Abduraxmanov zimmasiga yuklansin.

O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti

Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent shahri,
2024-yil 27-dekabr

Munosabat

OGOHLIK QO'NG'IROG'IGA BEPARVO BO'LMASLIGIMIZ KERAK

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2025-yil O'zbekistonda "Atrof-muhitni asrash va "yashil" iqtisodiyot yili", deb e'lon qilindi. *Hukumat davlat dasturini ishlab chiqishda "yashil" texnologiyalarni joriy etish, suvni tejash, ko'kalamzor hududlarni keskin ko'paytirish, Orol fojiasining oqibatlarini yumshatish, chiqindilar muammosini hal qilish, eng muhimi, aholi salomatligini mustahkamlash kabi masalalarga ustuvor ahamiyat qaratilishi belgilandi.*

Mazkur masalaning ahamiyatiga Prezident Shavkat Mirziyoyev 2021-yil 30-may kuni Koreya Respublikasida o'tkazilgan "Yashil o'sish va global maqsadlar uchun hamkorlik – 2030" (P4G) ikkinchi xalqaro sammitidagi nutqida ham e'tibor qaratib "Bugungi kunda ona tabiatning o'zi

bigza yo'llayotgan ogohlik qo'ng'irog'iga beparvo bo'lmagligimiz kerak. Afsuski, iqlim o'zgarishlari tobora kuchayib bormoqda. Biz yashayotgan Markaziy Osiyoda so'nggi 30 yilda o'tacha yillik harorat taxminan bir darajaga ko'tarildi.



Aks sado

MAHALLALARDA ISHBILARMONLAR KO'PAYSA, ODAMLAR DAROMADI HAM OSHADI

Ishsizlik inson manfaatlariga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qiladigan yirik ijtimoiy-iqtisodiy muammolardan biri hisoblanadi. Shu sababli mamlakatda doimiy daromad manbaiga ega bo'lmagan va ishsiz aholi, ayniqsa, yoshlar va xotin-qizlarning qiziqishini o'rganish va ularni kasb-hunar hamda tadbirkorlikka o'rgatuvchi o'quv markazlariga yo'naltirish orqali bandligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Bu ishlarni olib borishda mahalla tizimlari asosiy tayan chga aylandi. Mahallalardagi mavjud bo'lish o'rinlari hamda xo'jalik yurituvchi subyektlarning mavsumiy ishchilarga bo'lgan talabini aniqlash orqali ishsizlar, birinchi navbatda, "temir daftar", "ayollar daftar" va "yoshlar daftar"ga kiritilgan yoshlar va xotin-qizlarni bo'lish o'rinlariga joylashtirish hamda haq to'lanadigan jamoat ishlariga jalb qilishga katta ahamiyat berilyapti.

Shuningdek, mahallada istiqomat qiluvchi aholining oilaviy tadbirkorligini rivojlantirish, jumladan, ularning hunarmandchilik, kasanachilik, tomorqadan samarali foydalanish, kichik ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va boshqa turdagi faoliyatni yo'lga qo'yishi uchun oilaviy tadbirkorlik dasturlari doirasida kreditlar olishda ko'maklashilmoqda. Natijada mahallasidan uzoqlashmagan holda kichik biznes tashkil etib, o'zi, oilasi va hududidagi kam

ta'minlangan oilalar a'zolarini ish bilan band qilayotgan insonlar soni ortib boryapti. K u n i k e c h a Prezidentimizga banklar ishtirokida mahallalarda aholi bandligini ta'minlash va daromadli qilish chora-tadbirlari bo'yicha axborot berildi. Aytish joizki, bu haqda o'tgan yil 16-dekabrda videoselektor yig'ilishida ham alohida topshiriq berilgan edi. Shundan kelib chiqib 2025-yilda jami 5 mln. 200 ming nafar, jumladan, banklar tomonidan 3 milliordan ziyod aholini band qilish rejalashtirildi. Bu – shuncha inson tayinli ish joyiga, daromad manbaiga ega bo'ladi, hayotdan rozi yashaydi degani.

Shu maqsadda 208 ta tuman va shahar hokimlari hamda banklar rahbarlari aholi bandligini ta'minlash va daromadini oshirish bo'yicha hamkorlik shartnomalarini imzoladi, bunda tomonlarning huquq va majburiyatlari ko'rsatib o'tildi.

Shu maqsadda 208 ta tuman va shahar hokimlari hamda banklar rahbarlari aholi bandligini ta'minlash va daromadini oshirish bo'yicha hamkorlik shartnomalarini imzoladi, bunda tomonlarning huquq va majburiyatlari ko'rsatib o'tildi.

Ilg'or texnologiya va yuqori sifat

AVTOMOBIL SANOATI:

KELAJAK SARI DADIL QADAM



Avtomobilsozlik O'zbekiston iqtisodiyotining strategik muhim tarmoqlaridan biri bo'lib qolmoqda. Bu nafaqat yalpi ichki mahsulotga salmoqli hissa qo'shish, balki ish o'rinlari yaratish, turdosh tarmoqlarni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash va ichki talabni rag'batlantirish imkonini beradi. Mamlakat uchun avtomobilsozlik iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish va texnologik mustaqillikni mustahkamlashning asosiy vositalaridan biri hisoblanadi.

Aholi uchun ham avtomobilsozlik muhim amaliy ahamiyatga ega bo'lib, kundalik hayot va mehnat uchun transportning zaruri darajasini ta'minlaydi. Mahalliy avtomobillarning mavjudligi ko'proq variantlarni tanlash imkonini beradi.



AVTOMOBIL SANOATI: KELAJAK SARI DADIL QADAM

So'nggi yillarda erishilgan muvaffaqiyatlarga qaramay, O'zbekistonda avtomobilsozlik sanoati mavqini yanada mustahkamlash borasida oldimda salmoqli ishlar turibdi. Innovatsiyalarga sarmoya kiritish, mahsulot sifatini oshirish, eksport salohiyatini rivojlantirish va kadrlar tayyorlash nafaqat iqtisodiy, balki har tomonlama o'sishni qo'llab-quvvatlash asosiy yo'nalishlaridir. Avtosanoatning rivojlanishi turdosh tarmoqlar, jumladan, metallurgiya, kimyo, elektronika va logistika sohalarning yuksalishiga yordam beradi, bu esa umumiy iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlaydi.

Mahsulot sifati yaxshilandi

O'tgan yilda mamlakatimiz avtomobil sanoati ishlab chiqarish va eksport ko'rsatkichlarining barqaror o'sishini ko'rsatib, ijobiy dinamikani namoyish etdi. Yangi ishlab chiqarish liniyalarning ishga tushirilishi, mavjud korxonalarining modernizatsiyalanishi mahsulotlar sifati va xalqaro bozorlarda raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qildi. Bundan tashqari, xalqaro standartlarga javob beradigan zamonaviy va ekologiya toza avtomobil modellarini ishlab chiqarishga alohida e'tibor qaratildi. 2024-yilda O'zbekiston avtomobilsozlik sohasi oldinga muhim qadam tashladi, ammo muvaffaqiyatlarini mustahkamlash va yangi cho'qqilarni egallash uchun innovatsiyalar, infratuzilmani takomillashtirish va inson kapitalini rivojlantirishga sarmoya kiritishni davom ettirish zarur.

Mamlakat aholisi uchun avtomobilsozlik sohasi qulay narxlarda sifati transport vositalaridan foydalanishni ta'minlaydi, harakatchanlik va turmush darajasini oshiradi. Avtomobil eksporti davlatning ishonchli savdo sherigi sifatidagi nufuzini mustahkamlaydi va iqtisodiyotni diversifikatsiya qilishga, an'anaviy xomashyo tarmoqlariga qaralikni kamaytirishga ko'maklashadi.

O'tgan yil davomida ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiya qilish, yangi texnologiyalarni joriy etish va eksport imkoniyatlarini kengaytirishni o'zida jamlagan holda soha faol rivojlandi. Ushbu sa'y-harakatlar sezilarli natijalar berdi, bu ham iqtisodiy ko'rsatkichlarda, ham mahsulot sifatining yaxshilanishida o'z ifodasini topmoqda. 2024-yil yakuni bo'yicha 73 trln. so'mlik mahsulot, jumladan, 430 ming dona yengil avtomobil ishlab chiqarildi. Bu – 2016-yildagiga nisbatan o'sish 4,8 barobari tashkil etganini anglatadi. Eksport 571 mln. dollarga (2016-yildagiga nisbatan o'sish – 11,3 barobar) yetgan bo'lsa, avtomobilsozlik sohasining sanoatdagi ulushi 11 foizdan ortdi. Davlat byudjetiga 9 trln. so'mdan ko'proq soliq va boshqa to'lovlar amalga oshirildi. O'zbekistonda

avtomobillar parki 4,3 mln. donaga yetkazildi (2016-yildagiga nisbatan o'sish – 2,1 barobar), 1 ming kishiga avtomobillar soni 117 tani tashkil etdi (2016-yildagiga nisbatan o'sish – 1,8 karra).

Elektromobil va gibridd avtomobil ishlab chiqarish loyihasi

Jahonda sotilgan yangi avtomobillarning umumiy hajmida elektromobillarning ulushi besh yildan keyin 33 foizga, 2035-yilga borib esa 54 foizga ortadi. Lekin dunyoda elektromobillar ishlab chiqarishning jadal rivojlanib borishi bu kabi muddat va ko'rsatkichlarga undan oldinroq erishilishdan ham dalolat bermoqda. Chunki o'tgan yilning o'zida bunday mashinalar ulushi avtomobil bozorida 2 barabarga o'sgan. 2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida "yashil" iqtisodiyotga o'tish, jumladan, elektromobillar ishlab chiqarish bo'yicha ham maqsadlar belgilangan.

Gap shundaki, bugungi kunda jahondagi singari yurtimizda ham muqobil energiyada harakatlanuvchi avtomobillarga ehtiyoj oshib bormoqda. Ushbu transport turi toza energiya yordamida harakatlanadi, uglerod chiqindilarini chiqarmaydi va atrof-muhitni ifloslantirmaydi. Elektromobillarning yurish xarajati oddiy avtomobilga nisbatan 13 baravarga kam bo'lgani holda, 3 baravar kam "issiqxonaga gazlari"ni ajratib chiqaradi. O'zbekiston Prezidentining 2024-yil martdagi "O'zbekiston Respublikasida elektromobil va gibridd avtomobillar hamda ularning butlovchi qismlarini ishlab chiqarishni tashkil etish" investitsiya loyihasini amalga oshirish to'g'risidagi investitsiya shartnomasini tasdiqlash haqida"gi qarori ham bejiz qabul qilingani yo'q. Unga muvofiq, loyihani amalga oshirish davrida umumiy qiymati 160 mln. AQSH dollari miqdorida investitsiya, shu jumladan, 60 mln. AQSH dollari miqdorida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar jalb etiladi. Investitsiya loyihasini amalga oshirishning keyingi davrlarida elektromobil va gibridd avtomobillar ishlab chiqarish quvvatini bosqichma-bosqich yiliga 500 ming donagacha ko'paytirish, ishlab chiqariladigan elektromobil va gibridd avtomobillarning mahalliyashtirish darajasini 60 foizgacha yetkazish, mahalliy aholi uchun 10 mingta yangi ish o'rnini yaratish, elektromobil va gibridd avtomobillarning doimiy ravishda eksportga chiqariladigan davlatlar ro'yxatini kengaytirish; sifatlil va xavfsiz elektromobil va gibridd avtomobillarni xarid qilish, ularning mahalliy iqlim sharoitlariga muvofiqiligini ta'minlash hamda kafolatlil servis xizmatini ko'rsatish bo'yicha iste'molchilarning manfaatlarini himoyalash choralarini



O'tgan yil davomida ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiya qilish, yangi imkoniyatlarini joriy etish va eksport imkoniyatlarini kengaytirishni o'zida jamlagan holda soha faol rivojlandi. Ushbu sa'y-harakatlar sezilarli natijalar berdi, bu ham iqtisodiy ko'rsatkichlarda, ham mahsulot sifatining yaxshilanishida o'z ifodasini topmoqda. 2024-yil yakuni bo'yicha 73 trln. so'mlik mahsulot, jumladan, 430 ming dona yengil avtomobil ishlab chiqarildi.

ishlab chiqish; avtomobil ishlab chiqaruvchi korxonalariga, shu jumladan, investorga qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan imtiyoz va preferensiyalarni berishda teng shart hamda sharoitlarni yaratish qarorda ko'rsatib o'tilgan.

Davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan Xitoyning "BYD" kompaniyasi hamkorligida Jizzaxdagi yangi zavodda "Chazor" va "Song Plus Champion" modellarini ishlab chiqarish boshlandi. Loyiha doirasida 60 mln. dollar miqdorida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyani o'zlashtirish, 1 200 ta ish o'rnini hamda respublika bo'yab 21 ta dilerlik va servis markazi yaratish ko'zda tutilgan. Zavodda avtomobil kuzovlarini payvandlash, bo'yash va yig'ish uchun yuqori texnologiyali uskunalar o'rnatildi va MDHda yagona bo'lgan laboratoriya ochildi. Ushbu korxonaning joriy quvvati 50 ming dona avtomobilni tashkil qilib, uning quvvatini uch bosqichda 500 ming dona avtomobilga yetkazish rejalashtirilgan. "BYD" avtomobillarining butlovchi qismlarini mahalliyashtirish orqali 2025-yilda elektromobillar xarajatlarini kamaytirish mumkin.

Bu choralar O'zbekistonni elektromobillar ishlab chiqarishda mintaqaviy yetakchiga aylantiradi. Bu, o'z navbatida, mahalliyashtirish darajasini qo'shimcha 10 foizga oshirish imkonini yaratadi. 2025-yildan boshlab O'zbekistonda ishlab chiqarilgan "BYD" avtomobillarini Markaziy Osiyo va qo'shni davlatlarga,

jumladan, Qozg'ostonga eksport qilish rejalashtirilgan. Ma'lumki, "BYD" avtokonserni elektromobillar sohasida yetakchi hisoblanadi. U yangi energiya manbalari bilan foydalangan holda, yengil avtomobillar, krossoverlar, tijorat avtomobillari va avtobuslar ishlab chiqaradi. 2024-yil yakunlari bo'yicha kompaniya 4 mln. 272 mingdan ziyod elektromobillar sotgan. Bu unga AQSHning "Tesla" kompaniyasini ham ortda qoldirib, elektromobillar savdosi bo'yicha jahon yetakchisiga aylanish imkonini berdi.

Mamlakatimiz elektromobillarni ommaviylashtirish va ishlab chiqarishni tashkil etish uchun bir necha rag'batlantiruvchi jihatlarga ega. Elektr energiyasi narxining pastligi, iliq va issiq iqlim (bataryalar kam quvvat yo'qtadi) hamda qo'shni davlatlarda bunday ishlab chiqarishlarning mavjud emasligi shular sirasiga kiradi. "O'zavtosanoat" AJ bunday ulkan loyihani amalga oshirishi natijasida "BYD" avtomobillarining to'liq sikli (CKD: shtamplash, payvandlash, bo'yash, yig'ish) ishlab chiqarishini tashkil etishga erishadi.

E'tiborli jihati, "BYD" uchun bu aslida chet elda ishlab chiqarishni kengaytirishning birinchi tajribasi, shuning uchun xitoyliklari unga alohida e'tibor qaratyapti. Bundan tashqari, kelishuv shartlari mahsulotlarni mahalliyashtirish dasturini o'z ichiga oladi. Keyingi bosqichlarda dvigatellar, elektrodvigatellar, shuningdek, bataryalar ishlab chiqarish yo'lga qo'yiladi. Elektromobillarning odiy avtomobildan ustun tomoni, bu – foydalanish xarajatlarining kamligi. 100 mln. yo'l uchun elektromobil (13 kVt-soat) uy sharoitida o'rtacha 3900 so'mlik, ko'chada 32500 so'mlik zaryad olsa, shu masofaga yonilg'ili dvigatelda harakatlanuvchi avtomobil 64 ming so'mlik yonilg'ili ishlatadi, ya'ni 16 baravar ko'prog'. Agar xaridor bir yilda 20 ming km. masofa yuradigan bo'lsa, 10 – 12

mln. so'm atrofida mablag' iqtisod qiladi. Qolaversa, elektromobillarda servis xarajati 30 foizga (moy, filtr, sham yo'q) kam. Elektromobillarga texnik xizmat ko'rsatish davriyligi 20 ming km. atrofida bo'lsa, oddiy avtomobillarga har 5 – 7 ming kilometrda texnik xizmat ko'rsatilishi lozim bo'ladi.

Investitsiyalar va mahalliyashtirish

2024-yilda "O'zavtosanoat" AJ tizim korxonalarining investitsiya loyihalari doirasida 243 mln. dollar investitsiyalar, shu jumladan, 188 mln. dollar miqdorida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar o'zlashtirildi.

21 ta mahalliyashtirish loyihasi doirasida 17,4 trln. so'mlik mahalliy mahsulot ishlab chiqarildi hamda 453,1 mln. dollarlik importni qisqartirishga erishildi. 181 dona avtomobil detallarini mahalliyashtirish hisobiga 602 mlrd. so'mlik ishlab chiqarish xarajatlari qisqartirildi. Jumladan, tarmoqlararo kooperatsiya va shatakka olish mexanizmi orqali tarmoq korxonalar tomonidan "Damas" va "Treker" modellari uchun shinalar, "Treker" va "Oniks" modellari uchun tom reytinglari, uskunalar paneli, g'ildiraklar, yoritish chiroqlari, o'rindiq matolari va sun'iy cherm qoplamalari yetkazib berish yo'lga qo'yildi. Natijada o'tgan yilda tarmoqda 2 300 dan ortiq yangi ish o'rinlari yaratildi. Jami tarmoqda ish bilan band bo'lganlar soni 39 ming nafarni tashkil etdi (2016-yildagiga nisbatan o'sish – 1,6 barobar).

2024-yil avtomobilsozlik iqtisodiyotimizning drayver sohalaridan biriga aylandi. Avtomobilsozlikda amalga oshirilayotgan islohotlar hisobiga investitsiyalarni jalb etish, sohani modernizatsiyalash, yangi ishlab chiqarish tarmoqlarini yo'lga qo'yish, ularni kengaytirish, eng asosiysi, yangi ish o'rinlarini tashkil qilish imkoniyati yaratilmoqda.

Farhod TO'RAYEV,
"O'zavtosanoat" AJ raisi
o'rinbosari.



Majburiy harbiy xizmat bo'yicha yangi qoidalar kuchga kirdi

Endilikda Gruziyada muddatli harbiy xizmatga chaqiruv "Milliy majburiy harbiy xizmat" deb ataladigan harbiy xizmat tamoyili asosida bajariladi. Chaqiruvlar 18 yoshdan 27 yoshgacha bo'lgan, harbiy hisobda turgan fuqarolar uchun tasodifiy tanlov bo'yicha amalga oshiriladi.

Muddatli xizmat uchun pul to'lanadi, shuningdek, ta'lim va dam olish kunlari beriladi. Chaqiruvlar yil davomida bosqichma-bosqich e'lon qilinadi. Xususan, jangovar bo'linmalar uchun chaqiruv 15-apreldan boshlanadi.

Qo'riqlash va ta'minot bo'linmalari uchun xizmatga chaqiruv 15-mart, 1-iyun, 15-avgust va 1-noyabrden to'rt bosqichda o'tkaziladi.

Kichik komandirlik unvoni va ma'lum mutaxassislikka ega bo'lish uchun chaqiruvlar esa 15-oktabrdan boshlanishi belgilangan.

Yevropa Ittifoqidan Misrga iqtisodiy yordam

Misr bosh vaziri Mustaf Madbulning Qohirada o'tkazilgan matbuot anjumanida ma'lum qilishicha, Yevropa Ittifoqining iqtisodiy yordam sifatidagi birinchi transhi mamlakat Markaziy bankiga 2024-yil 27-dekabrda tushgan. "YEI Misr iqtisodiyotini qo'llab-quvvatlash dasturini amalga oshirish doirasida 1 milliard yevro miqdorida birinchi transhini yo'naltirdi", dedi Madbuli.

Misrda YAIM o'sishi 2024-yilda 3,5 foizni tashkil etgan. Bu fakt "hokimiyat to'g'ri yo'nalishda ketayotgani belgisi" sifatida baholanishi kerak, dedi bosh vazir. Uning ta'kidlashicha, hukumat 2025-yilga mo'ljallangan "aniq reja"ni ishlab chiqqan bo'lib, u Ramazon oyi boshlanguniga qadar davlat o'zining barcha moliyaviy majburiyatini bajarishini va asosiy mahsulotlar narxlarini barqarorlashtirishni ta'minlashga qaratilgan.

Koinotdagi chiqindilar Yer kurrasiga xavf solyapti

"CNN" xabariga ko'ra so'nggi to'rt yil ichida koinotga turli jismlarni uchirish sur'ati keskin o'sdi. "Bu tahdidli vaziyatni yuzaga keltiradi", deydi Arizona universiteti professori Vishnu Reddi.

Yevropa kosmik agentligi ma'lumotiga ko'ra 1957-yilda kosmik tadqiqotlar boshlanganidan beri koinotda 650 dan ortiq portlash, to'qnashuv yoki parchalanishga olib kelgan favqulodda hodisalar sodir bo'lgan.

Bunday vaziyatlar qatoriga sun'iy yo'ldoshlarning tasodifiy to'qnashuvi, raketa va kosmik kema qismlarining kutilmagan portlashi, AQSH, Rossiya, Hindiston va Xitoy kabi mamlakatlarda o'tkazilgan qurol-yarog' sinovlari va ular orbitadagi turli balandliklarda parchalanishi kiradi.

Sayyoramiz nufusi ko'paymoqda

Germaniyaning Jahon aholisi jamg'armasining ma'lum qilishicha, 2024-yilda Yer aholisi soni o'tgan yildagiga nisbatan qariyb 82 million kishiga ko'paydi.

Hisob-kitoblarga ko'ra 2025-yil 1-yanvarda dunyo nufusi 8,156 milliard kishiga yetgan. Ekspertlar, ayniqsa, Afrika qit'asida yaqin yigirma yil ichida odamlar soni ikki baravar ko'payishini taxmin qilmoqda.

BMTning hisob-kitoblari ko'ra 2037-yilda sayyoramiz aholisi 9 milliarddan oshishi mumkin.

AQSH aholini ro'yxatga olish byurosi hisob-kitoblari ko'ra aholining o'sishi o'tgan yilda 2023-yildagiga nisbatan biroz sekinlashdi. 2023-yilda dunyo aholisi 75 millionga, 2024-yilda esa 71 milliondan ortiq kishiga ko'paygan.

YAIM ko'rsatkichlari tahlil qilindi

Xalqaro valyuta jamg'armasi tahlilchilari jahon yalpi ichki mahsulotining 3,2 foizga o'sishini hamda 115,3 trln. AQSH dollariga yetishini bashorat qilmoqda.

Tahlillarga ko'ra dunyodagi eng yirik AQSH iqtisodiyoti hajmi 2025-yilda 30,3 trln. dollarga yetadi. Xitoy 19,5 trln. dollar ko'rsatkich bilan ikkinchi o'rnini mustahkam saqlab qoladi, Germaniya iqtisodiyoti esa (4,9 trln. dollar) uchinchi o'rnini egallaydi. Keyingi o'rinlarda Yaponiya va Hindiston iqtisodiyotlari joylashgan bo'lib, ularning hajmi mos ravishda 4,4 va 4,3 trln. dollarni tashkil etadi.

2025-yilda iqtisodiy jihatdan baquvvat davlatlar ro'yxatiga Buyuk Britaniya (3,7 trln.), Fransiya (3,3 trln.), Italiya (2,5 trln.), Kanada (2,3 trln.) va Braziliya (2,3 trln.) ham kiradi.

Rossiya ushbu reytingda 2,2 trln. dollar bilan 11-o'rnini egallab turibdi. Shuningdek, ikkinchi o'ntalikdan Janubiy Koreya (1,9 trln.), Avstraliya (1,9 trln.), Ispaniya (1,8 trln.), Meksika (1,8 trln.), Indoneziya (1,5 trln.), Turkiya (1,5 trln.), Niderlandiya (1,3 trln.), Saudiya Arabistoni (1,1 trln.) va Shveysariya (1 trln.) joy olgan. Dunyoning qolgan har bir mamlakatining nominal YAIM ko'rsatkichlari 2025-yilda 1 trln. AQSH dollaridan oshmaydi.

Internet xabarlari asosida
Sharofiddin TO'LAGANOV tayyorladi.

O'ZBEKISTON KABI BARQAROR RIVOJLANISH SUR'ATLARIGA ERISHAYOTGAN DAVLATLAR JUDA KAM

Samarqandda bo'lib o'tadigan YUNESKO Bosh konferensiyasining 43-sessiyasi Avstriya poytaxtida keng targ'ib qilindi. O'zbekiston elchixonasi ko'magi bilan Toshkent kimyo-texnologiya instituti va "O'z kimyosanoat" AJ vakillaridan tashkil topgan delegatsiya amaliy tashrif bilan Vena shahrida bo'ldi.

Biz va jahon

Avstriyadagi Vebster universiteti filiali va Vena universitetida O'zbekistonga bag'ishlab tashkil qilingan tadbirlarda mamlakatimizning boy madaniy merosi, savdo-iqtisodiy, sayyohlik va gastronomik salohiyatini targ'ib etuvchi taqdimotlar o'tkazildi. Ularda diplomatik korpus, siyosiy, biznes, ilmiy va akademik doira vakillari bilan birgalikda mazkur universitetlarda tahsil olayotgan, shu jumladan, o'zbekistonlik talabalar ham qatnashdi.

Vebster universiteti filialida tashkil etilgan taqdimotda oliyog' rahbari Samuel Shubert shu kabi tadbirlar xalqlarni birlashtirishga samarali xizmat qilishini ta'kidladi. Bu yerda tahsil olayotgan o'zbekistonlik talabalar o'zining bilimi va dunyoqarashi bilan boshqalardan ajralib turishi e'tirof etildi.

Vena universitetida bo'lib o'tgan taqdimotda ushbu universitet huzuridagi Islom ilohiyotshunosligi instituti rahbari Tug'ul Kurt so'zga chiqib, O'zbekiston xalqining islom sivilizatsiyasiga qo'shgan katta hissasini nafaqat kitoblardan o'qib, balki Samarqandga tashrif chog'ida o'z ko'zi bilan ko'rishga muayassar



bo'lganini mamnuniyat bilan gapirib berdi. U mamlakatimizning boy tarixini xorijiy yosh olimlar o'rganishi uchun maxsus o'quv kurslar tashkil qilinishi lozimligini ta'kidlab, bu yo'nalishda hamkorlikni rivojlantirishga tayyorligini bildirdi. O'zbekiston elchisi Baxtiyor Ibragimov YUNESKO Bosh konferensiyasining joriy yil Samarqandda o'tadigan 43-sessiyasi tarixiy ahamiyat kasb etishiga urg'u berarkan, mamlakatimiz Prezidenti boshchiligidagi yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ortga qaytmas islohotlar natijalari to'g'risidagi ma'lumotlarni ishchikchilar e'tiboriga havola qildi. Toshkent kimyo-texnologiya instituti rektori Botir Usmonov o'zining taqdimotida yurtimiz rivojining tarixi, jahon sivilizatsiyasiga beqiyos hissa qo'shgan buyuk ajdodlarimizning

ilmiy, madaniy va ma'naviy merosi hamda mamlakatimizda barcha sohada, ayniqsa, iqtisodiy va turizm yo'nalishlarida amalga oshirilayotgan islohotlar natijalari to'g'risida batafsil so'zlab berdi.

Tadbirlar davomida O'zbekistondan kelgan iqtidorli yosh san'atkor va raqqosalar tomonidan ijro etilgan "Maqom", "Lazgi" kabi YUNESKO Insoniyat nomoddiy madaniy merosi ro'yxatidan joy olgan an'anaviy kuy-qo'shiq va raqslardan iborat konsert dasturi ham taqdim etildi. Ta'kidlash joizki, milliy liboslar va hunarmandchilik mahsulotlari ko'rgazmasi xorijlik ishtirokchilarda katta qiziqish uyg'otdi.

Toshkent kimyo-texnologiya instituti hamda Vebster va Vena universitetlari rahbariyati ikki tomonlama uchrashuvlar o'tkazib, hamkorlikni yanada rivojlantirish bo'yicha aniq kelishuvlarga erishdi.

Avstriyalik hamkorlar bo'lib o'tgan taqdimotlar bo'yicha o'zlarining fikrlari bilan o'rtoqlashdi.

Avstriya parlamenti sobiq deputati hamda YEXHT Parlament Assambleyasi sobiq raisi Kristin Muttonen:

– Men O'zbekistonning yaqin do'sti sifatida bugungi madaniy-ma'rifiy tadbirga taklif etilganimdan juda xursandman. Biz mamlakatimizning boy madaniy merosi haqida nafaqat eshitdik, balki tashkil qilingan ko'rgazma orqali ko'rib, yaqindan tanishdik. Buning uchun tashkilotchilarga minnatdorlik bildiramiz.

